

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 2 (14)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Adilov Abror Anvarovich IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DASTLABKI YILLARDA O‘ZBEKISTONDAGI DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI TARIXIDAN	5
2	Алиназарова Дилдора Валишеровна ВОЕННЫЕ КОРРЕСПОНДЕНТЫ И ИХ ВКЛАД В РЕГИОНАЛЬНУЮ ПЕРИОДИЧЕСКУЮ ПЕЧАТЬ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ	14
3	Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich XIX ASRNING 30-40-YILLARIDA BUXORO XONLIGIDA INGLIZ-RUS SAVDO- IQTISODIY RAQOBATI VA UNING MINTAQAVIY SAVDO ALOQALARIGA TA’SIRI	27
4	Bo'tayev Jonibek Shodiyevich XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA HARBIY- MA’MURIY BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLANISHI	35
5	Исхаков Мирсадик Мирсултанович, Ғойибов Бобир Собирович СУҒДИЙ ТИЛ СОН ТУРКУМИНИНГ ЛЕКSIK ВА РАҚАМЛИ ИФОДАЛАРИ	43
6	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi NAVRO‘Z AHMADHON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA TOSHKENT	53
7	Mamatova Maxfuza Baxriddinovna MARKAZIY OSIYO CHOY YO’LI TARIXIDAN	61
8	Muzaffarov Muhammadaminxon Xusanxon o‘g‘li TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK KENGASHI (TURKIY KENGASH) TARKIBIDAGI ASOSIY ORGANLAR VA TUZILMALAR	67
9	Ne'matov Shoxzodbek Ulug'bek o'g'li O‘ZBEKISTONDA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR (2017–2021-YILLAR)	73
10	Normuratov O‘rolbek Jumma o‘g‘li BUXORO XONLIGI VA ROSSIYA PODSHOLIGI O‘RTASIDAGI SIYOSIY HAMDA IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI (XVI ASR OXIRI – XVII ASR BIRINCHI YARMI)	82
11	Очилдиев Файзулла Бобокулович БУХОРО АМИРЛИГИГА ТЕМИР ЙЎЛ ТАРМОҒИНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	92
12	Qosimov Mirjalol Ravshan o‘g‘li O‘ZBEKISTONLIK PARTIZANLARNING SOBIQ ITTIFOQ HUDUDINI OZOD ETISHDAGI ISHTIROKI (UKRAINA VA RSFSR MISOLIDA)	101
13	Raximova Gulilola Zohid qizi O‘ZBEKISTONDA BOLALAR MAVZUSIGA IXTISOSLASHGAN OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING FAOLIYATI	110
14	Саломова Барчиной Журакуловна ЖУРНАЛИСТ АЁЛЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ҲАЁТИ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРДАГИ ЎРНИ	117
15	Toirova Zamira Suban qizi TOSHKENT IQTISODIY RAYONI ELEKTR ENERGETIKASI: HUDUDIY JOYLASHUVI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	131
16	Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi XV ASR OXIRIDA HIROT DAVLATIDA SOLIQ SIYOSATINING XUSUSIYATLARI (HUSAYN BAYQARO DAVRI)	137
17	Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi 1950-1980-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR KOLXOZLARINING HOLATI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR	142

18	Qodirova Ra'no Mamirjonovna	148
	SOVET HOKIMIYATINING DASTLABKI YILLARIDA TURKISTON XALQ MAORIFI VA JAMIYATSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI	
19	Ergashev Umidjon Muhammed o'g'li	155
	O'ZBEKISTON SSRDA SOLIQ TIZIMINING TASHKIL ETILISHI (TOSHKENT OBLASTI MISOLIDA)	
20	Эргашев Хусан Юсуп ўғли	162
	ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИДА ОЛИБ БОРИЛГАН АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ОЛИБ БОРИЛИШИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	
21	Xaitov Zafar Uzakovich	167
	VIZANTIYA MADANIYATI VA UNING JAHON SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI	
22	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи	173
	ВЕНСКАЯ СИСТЕМА МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОГО ДЕЛА ВО ФРАНЦИИ В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА	

Ergashev U. M.

«Arxivshunoslik va manbashunoslik» kafedrası o'qituvchisi

O'zbekiston Milliy universiteti

uergashev6677@gmail.com

O'ZBEKISTON SSRDA SOLIQ TIZIMINING TASHKIL ETILISHI (TOSHKENT OBLASTI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston SSR Toshkent oblastida 1920-yillarning o'rtalarida sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan soliq siyosati hamda hududiy soliq tizimini shakllantirish jarayonlari tahlil etiladi. Shuningdek, Toshkent oblastida moliya va soliq boshqaruvini markazlashtirish doirasida joriy etilgan ma'muriy-boshqaruv mexanizmlari va ularning soliq ma'murchiligini takomillashtirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Moliya, soliq, yig'im, to'lov, budjet, qishloq xo'jaligi solig'i, daromad, egri soliqlar, to'g'ri soliqlar, moliyaviy-iqtisodiy komissiya, uyezd.

KIRISH

O'zbekiston SSRning tashkil topishi sovet hokimiyatining iqtisodiy tayanchi hisoblangan soliqlarni belgilash, davlat budjetini shakllantirish va moliyaviy boshqaruvni yo'lga qo'yishda asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston SSR Markaziy Inqilobiy qo'mitasining 1925-yil 29-yanvardagi qaroriga muvofiq respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilishi qayta shakllantirilishi bu jarayonning muhim huquqiy jihatlaridan biri bo'ldi. Viloyatlar, uyezdlar va ularga tegishli ma'muriy markazlarning belgilanishi soliqqa tortish obyektlari, aholi soni, iqtisodiy resurslar va mahalliy budjetlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida qaraldi.

Bu davrda O'zbekiston SSR tarkibidagi Toshkent oblasti respublikaning muhim iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib respublika budjetiga soliqdan keladigan daromadlar bo'yicha ham Toshkent oblasti boshqa oblastlarga nisbatan yuqori o'rinda bo'lgan. Bu jarayonda Toshkent oblasti o'zining yarim millionlik aholisi hamda rivojlangan qishloq xo'jaligi – xususan, paxtachilik, sholikorlik va bog'dorchilik salohiyati bilan sovet hokimiyatining asosiy soliq bazalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

O'zbekiston SSR Markaziy inqilobiy qo'mitasining 1925-yil 29-yanvardagi qaroriga ko'ra yangi tuzilayotgan respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilishi belgilangan. Qarorga ko'ra O'zbekistonda dastlabki 7 ta viloyat Zarafshon, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Toshkent, alohida Nurota uyezdi va Konimex avtonom rayoni bo'lgan [1, str.1164.]. Toshkent oblasti esa markazi Toshkent shahrida bo'lib, quyidagi uyezdlardan iborat: Toshkent

uyezdi, markazi Toshkent shahri – 12 volost; Mirza-Cho‘l uyezdi, markazi Mirza-Cho‘l shahri – 7 volost [2, B.40].

Yangi tashkil etilgan hududlarda sovet hokimiyati manfaatlariga xizmat qiladigan davlat muassasalarini tashkil etish zarur edi. Shu jihatdan, 1925-yil mart oyida Butunrossiya Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitaning O‘rta Osiyo byurosi plenumi yer-suv munosabatlarini, aholining turli ijtimoiy qatlamlari ahvolini, shahar va qishloq o‘rtasidagi aloqalarni, sovet va partiya apparatini, shuningdek “Qo‘shchi” ittifoqlari faoliyatini o‘rganish hamda partiya va sovet ishlarini chuqurlashtirish maqsadida qishloq va ovullarni tanlab tekshirish zarurligini e‘tirof etdi. Shu maqsadda maxsus komissiya tuzildi. Ushbu komissiyaning asosiy maqsadi kelgusida sovet hokimiyatiga o‘z tadbirlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, soliqlarni belgilash, budjet va mablag‘larni taqsimlash hamda qishloq va ovullardagi siyosatni muayyan hudud aholisi iqtisodiy ehtiyojlariga muvofiq olib borish imkonini yaratishdan iborat edi [3, str. 4].

1926 yil mart oyi boshlarida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi huzurida rayonlashtirish bo‘yicha Markaziy siyosiy komissiya tashkil qilindi. Komissiya tarkibiga 16 nafar kishi kiritilib, unga O‘zbekiston SSR Ishchi-Dehqon inspeksiyasi xalq komissari Axmadbek Mavlonbekov rais qilib tayinlandi. Markaziy siyosiy komissiya tomonidan o‘z navbatida 4 ta kichik komissiya: texnikaviy, ilmiy, sovet qurilishi va moliyaviy-iqtisodiy kabi kichik komissiyalar tashkil qilindi.

Moliyaviy-iqtisodiy kichik komissiyasi zimmasiga yangi tashkil qilinadigan ma‘muriy iqtisodiy birliklarning budjeti, hududlarning soliq tizimi va shtati kabi masalalarni hal qilish vazifasi yuklatildi [4, B. 60].

1926-yilgi rayonlashtirish shunchaki ma‘muriy-hududiy birliklarni belgilash kabi masalalarni emas, balki davlat moliya va soliq tizimini tartibga solish ishlarini ham amalga oshirdi. Axmadbek Mavlonbekov boshchiligidagi komissiya soliq tushumlarini miqdorini kafolatlash orqali sovet hokimiyatining iqtisodiy tayanchini yaratdi.

Shu bilan birgalikda oblastlarning moliya bo‘limlari hamda ularning boshqaruv tizimini tashkil etish masalalari ham hal qilindi.

Toshkent oblasti moliya bo‘limi viloyatda amalga oshiriladigan soliq sohasidagi barcha ishlarni amalga oshirishgan va viloyatda mavjud moliya hamda soliq muassasalari faoliyatini boshqargan hamda ular ustidan nazoratni ta‘minlagan.

1925-yilda oblast moliya bo‘limining vakolatlari soliq va soliq bo‘lmagan daromadlar asosida davlat hamda mahalliy budjetlarni shakllantirish, ularning ijrosini boshqarish va kassa-hisob ishlarini yuritishni qamrab olgan. Shuningdek, bo‘lim budjet mablag‘larining aylanishi va muassasalar xarajatlari ustidan hujjatli nazorat o‘rnatish bilan birga, Moliya xalq komissarligining maxsus topshiriqlari hamda ko‘rsatmalari ijrosini ta‘minlashga mas‘ul etib belgilangan [5].

Toshkent oblasti moliya bo‘limi oblast Ijroiya qo‘mitasi tarkibida faoliyat yuritgan bo‘lib, bevosita O‘zbekiston SSR Moliya xalq komissarligiga bo‘ysungan. Toshkent oblast moliya bo‘limi shu hududdagi barcha moliyaviy va soliq ishlarini amalga oshirish vazifasi va vakolati yuklatilgan. Uning vakolatiga

soliq va soliqdan tashqari daromadlar, umumdavlat va mahalliy moliya doirasida smeta-budjet ishlari, Toshkent oblasti bo'yicha davlat va mahalliy budjetlarning ijrosi, viloyat muassasalarining pul aylanmalari bo'yicha keyingi hujjatli tekshiruvni amalga oshirish va boshqa vazifalar birlashtirilgan.

Toshkent oblast moliya bo'limi tarkibida Toshkent uyezdi moliya bo'limi (Toshkent shahri), Eski shahar moliya bo'limi (Eski shahar, Toshkent) va Mirzacho'l uyezd moliya bo'limlari faoliyat yuritgan. Bu vaqtda Toshkent oblasti moliya bo'limi mudiri Abbos Saidxonov uning o'rinbosari esa Nijelskiy bo'lgan[6, st. 405].

Uning mudiri oblastdagi barcha moliya muassalari faoliyatini nazoart qilgan holda O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligi va oblast ijroiya qo'mitasi oldida javobgar bo'lgan. oblastning moliya bo'limi mudiri viloyat ijroiya komiteti tomonidan saylangan lekin saylangan nomzod O'zbekiston SSR Moliya Xalq komissarligi tomonidan rad etilishi ham mumkin bo'lgan. Shu bilan birgalikda viloyat moliya bo'lim mudirining o'rinbosari ham mavjud bo'lib u viloyat ijroiya komiteti tomonidan tayinlangan lekin tayinlangan o'rinbosarni moliya xalq komissarligi rad etish huquqiga ega bo'lgan[7]. Toshkent oblasti moliya bo'limining qolgan tarkibi ya'ni nazorat-buxgalteriya boshqaramasining katta nazoratchilari, moliya inspektorlari, soliq inspektorlari, davlat daromadlari bo'yicha inspektorlar va kooperativ kredit inspektorlari Toshkent viloyat Moliya bo'limi mudirining o'zi tomonidan tayinlangan. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu lavozimlarga tayinlangan nomzodlar haqida batafsil ma'lumotlar O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligiga yuborilishi va komissarlik ushbu nomzodlarga e'tiroz bildirgan holda rad etish vakolatiga ham ega bo'lgan.

Mulohaza o'rinda ta'kidlash joizki, oblast moliya bo'limidagi ushbu tartib bu davrda moliya boshqaruvining markazlashtirish malalasiga alohida urg'u berilganligidan dalolat beradi.

Toshkent oblasti moliya bo'limida faoliyat yuritayotgan boshqa barcha xodimlar viloyat moliya bo'limining o'zi tomonidan tayinlangan va bo'shatilgan. Viloyatda soliqlar va yig'imlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari viloyat mahalliy aholisining ushbu soliqlar va yig'imlarga bo'lgan munosabatini o'rganish, davlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish maqsadida Toshkent oblast moliya bo'limi huzurida soliq komissiyalari tuziladi. Ularning tarkibi va faoliyati maxsus qonun hujjatlari asosida shakllantirilgan. Bundan tashqari viloyat budjetining daromad manbalari va sarflanishini nazorat qilish hamda belgilash uchun viloyat moliya bo'limi huzurida, bo'lim mudiri raisligida budjet komissiyasi tuzilgan.

Viloyat moliya bo'limi tarkibi umumiy bo'lim, smeta kassa, valyuta, mahalliy moliya, soliq va davlat daromadlari kabi bo'limlardan tashkil topgan.

Shu bilan birgalikda oblast moliya bo'limi tarkibida maxsus nizom asosida faoliyat yurituvchi viloyat daromadlari va harajatlarini nazorat qiluvchi kichik bo'lim ham faoliyat yuritgan[8].

Toshkent oblast moliya bo'limi tarkibidagi ba'zi asosiy bo'limlarning faoliyat yo'nalishlari va vazifalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak.

Oblast moliya bo'lim tarkibidagi umumiy bo'limning vazifalari O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligining nizomlari va topshiriqlari asosida Toshkent oblasti hududida mavjud moliya muassasalarning tashkil etilishini ta'minlash, viloyat moliya bo'limida mavjud kadrlar tarkibini nazorat qilish, viloyat moliya bo'limiga bo'ysunuvchi barcha moliya organlari xodimlari hisobini yuritish, viloyat moliya bo'limi mudiri tomonidan chiqariladigan xodimlar to'g'risidagi buyruqlar loyihalarini ta'minlash, hujjatlar hisobini yuritish, bo'limning barcha tarkibi tomonidan hujjatlarning ijrosini o'z vaqtida taminlanishini nazorat qilish, O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligi ruxsati bilan viloyat moliya bo'limi xodimlari uchun yig'ilishlar, kengashlar tashkil etish va arxiv ishiga rahbarlik qilish kabi masalalarni o'z ichiga olgan.

Soliqlar bo'limi tarkibida esa bir nechta bo'linmalar mavjud bo'lib ular bu davrda mavjud soliqlarning Toshkent oblastidan tizimli tarzda undirillishini nazorat qilgan. Bunday bo'linmalarga hunarmandchilik (sanoat) solig'i, daromad va mulk solig'i, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar hamda yagona qishloq xo'jaligi solig'i kabi bo'linmalarni kiritish mumkin bo'lgan. Yuqorida keltirib o'tilgan bo'linmalar viloyat mahalliy budjetining asosi hisoblangan soliqlarning belgilangan tartibda undirilishini nazorat qilgan va har bir bo'linma o'z yo'nalishida belgilangan vazifalarni amalga oshirgan. Xususan, hunarmandchilik (sanoat) solig'i bo'linmasi korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan patentlarning to'g'ri tanlanishini umumiy boshqarish va nazorat qilish, savdo va hunarmandchilik faoliyatini umumiy tekshirish rejasini tasdiqlash hamda unga rahbarlik qilish, sanoat solig'i to'g'risidagi nizom buzilishi yuzasidan tuzilgan bayonnomalarni ko'rib chiqish shu bilan birga korxonalarni to'g'ri soliqlarga to'liq jalb etilishini nazorat qilish hamda soliq solinadigan aylanmani belgilash usullarining to'g'ri qo'llanilishini tekshirish kabi masalalarni tartibga solgan[9, ct. 210.].

Daromad va mulk solig'i bo'linmasi esa soliq to'lovchilar hisobining to'g'ri yuritilishi va soliq miqdorlarining to'g'ri hisoblanishini tekshirish, daromad va mulk solig'i to'g'risidagi nizom asosida viloyatdagi soliq ishlarini bevosita amalga oshirishni nazorat qilgan. To'g'ri soliqlar bo'linmasining vazifalari gerb yig'imi to'g'risidagi nizom buzilishlari yuzasidan tuzilgan hujjatlarni ko'rib chiqish, mahalliy savdo shoxobchalari uchun gerb yig'imlarini belgilashda ishtirok etish, meros soliqlarini o'z vaqtida, to'g'ri undirilishini nazorat qilish, Toshkent oblastida soliq ishlarni amalga oshirish bo'yicha umumiy boshlang'ich reja tuzish va tegishli idoralar bilan muvofiqlashtirish kabi masalalarni o'z ichiga olgan.

Toshkent oblastida aksiz soliqlariga oid me'yoriy-huquqiy ko'rsatmalarni bajarilishini va ularga rioya qilinishini nazorat qilish, aksiz soliqlar inspeksiyasini ishini boshqarish, aksiz soliqlarini hisoblash, aksiz tovarlari ishlab chiqarilishi, hisobga olinishi, saqlanishi va savdoga chiqarilishini, shuningdek, kontrabandaga qarshi kurashni tashkil qilish, aksiz soliq to'lovchi korxonalarga hisob-kitob daftarlari, yuk hujjatlari va spirtli ichimliklar hamda tamaki mahsulotlarini sotish huquqini beruvchi maxsus ruxsatnomalarni taqdim etish bilan birga aksiz tovarlarini bojxona va maxsus ajratilgan joylarga yetkazib berish rejasini tuzish hamda aksiz va bojxona daromadlarini hisobga olish, belgilangan buxgalteriya

hisobotini tayyorlash va tushumlarni nazorat qilish kabi maslalar egri soliqlar bo'linmasi zimmasida bo'lgan[10].

1926-yil 13-iyunda O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligi soliq boshqarmasining buyrug'iga asosan O'zbekiston SSRda mavjud viloyatlar tarkibidagi hududiy birliklarida soliq yig'ishni tartibga solish, davlat ro'yxatiga olinmagan obyektlarni ro'yxatga olish, qurilish solig'i, uy-joy solig'i ijara to'lovlari va qishloq xo'jaligi solig'ini samarali undirish maqsadida barcha viloyatlarda xususan Toshkent oblastining bir nechta uyezdlarida va volostlarida moliya uchastkalari tashkil qilinishi to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Toshkent viloyatida bu vaqtda 19 ta moliya uchastkasi (Farg'ona viloyatidan keyin ikkinchi o'rin 21 ta) mavjud bo'gan bo'lsa 1927-yilning oktabriga qadar 22 taga yetkazilishi belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash lozimki, Toshkent oblastida ushbu tashkil etilishi belgilangan moliya uchastkalarining soni boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori bo'lgan masalan, bu davrdagi poytaxt Samarqandda 13 ta moliya uchastkasi bo'lgan bo'lsa, ushbu qarordan keyin uni soni 15 taga yetgan, Xorazm viloyatida 5 tadan 6 taga ko'paygan[11].

1928-yilda Toshkent okrugi moliya bo'limi tarkibida 17 ta soliq uchastkasi, shundan 5 tasi qishloq hududlarida, mahalliy soliqlar bo'yicha 2 ta uchastka faoliyat yuritgan[12]. 1929-yil yanvar oyining oxirida O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligi qarorini ijro etish maqsadida Toshkent shahri bo'yicha davlat va mahalliy soliqlarni undirish bo'limi soliq bo'linmasiga birlashtirildi. Bundan tashqari mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'limi qayta tuzilib uning zimmasida bo'lgan mahalliy soliqlar va yig'imlarni hisoblashga oid ishlar yangi tashkil etilgan 1-mahalliy soliqlar va yig'imlar uchastkasiga o'tkazilgan Toshkentning eski shahar qismida esa soliqlarni hisoblash 2-mahalliy soliqlar va yig'imlar uchastkasiga tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Yangi tashkil etilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'limi ushbu ikki uchastka faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, okrug hududida mahalliy soliqlar va yig'imlarni tashkil etish ishlarini amalga oshirgan. 1929-yil iyun oyida Moliya xalq komissarligi qarori asosida egri soliqlar bo'linmasi tugatilib, uning o'rniga uchta shtat birligidan iborat kichik bo'linma tashkil etilgan. Ushbu bo'linmaning ayrim vakolatlari soliq inspektorlari va soliq uchastkalari zimmasiga o'tkazilgan[13].

Xulosa qilib aytganda, Toshkent oblastida moliya va soliq boshqaruv tizimining tashkil etilishi sovet hokimiyati uchun iqtisodiy tayanchini mustahkamlash uchun asosiy ahamiyat berilishi lozim bo'lgan masalalardan biri edi. Shuning uchun ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilib hududlardagi soliq tizimi boshqaruvini markazlashtirish va soliq miqdorlarini belgilash uchun hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari o'rganib chiqildi. O'zbekiston SSR Toshkent oblastining iqtisodiy imkoniyatlari, oblast hududining qishloq xo'jaligi boshqa oblastlarga qarganda ancha unumdorligi soliq miqdorlarini Toshkent oblastida respublikaning boshqa oblastlariga qancha ancha yuqori bo'lishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari keltirib o'tilgan omillar budjetning asosiy daromad manbalaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi solig'ini ham boshqa oblastlarga nisbatan yuqori bo'lishiga olib keldi. Shu jihatda olib qaraganda Toshkent oblasti soliq tizimi

nafaqat Respublika budjeti balki ittifoq budjeti uchun ham ahamiyati yuqori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Весь СССР Экономический, Финансовый, Политический и Административный справочник. Под редакцией проф. М. Г. Вронского и проф. М. А. Сиринова., Государственное Издательство – Москва, 1926, Ст. 1164.
2. Норматов О.М. Ўрта Осиёда ўтказилган Районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири (Монография) Тошкент: “Turon-Iqbol”, 2022 – Б. 40.
3. Современный кишлак Средней Азии. Вып. I. Нийазбекская волость (Ташкентской области, Узбекской ССР). Ташкент, 1926. Ст. 4.
4. Норматов О.М. Ўрта Осиёда ўтказилган Районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири (Монография) Тошкент: “Turon-Iqbol”, 2022 – Б. 60.
5. О‘зМА, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 27-varaq.
6. Вся Средняя Азия: справочная книга на 1926 хоз. год: с приложением схематической карты Средней Азии. – Ташкент: Средне-Азиатское отделение Российско-Восточной торговой палаты, 1926. – Ст. 405.
7. О‘зМА, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 28-varaq.
8. О‘зМА, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 28-varaq.
9. Толкушкин А.В. История налогов в России. – Москва: «Юристъ», 2001. – Ст. 210.
10. О‘зМА, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 33-varaq.
11. О‘зМА, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 74-yig‘majild, 13-varaq.
12. О‘зМА, R-93-fond, 3-ro‘yxat, 108-yig‘majild, 1-varaq.
13. О‘зМА, R-93-fond, 3-ro‘yxat, 108-yig‘majild, 3-varaq.

Эргашев У. М.

Преподаватель кафедры «Архивоведение и источниковедение»

Национальный университет Узбекистана

uergashev6677@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКСКОЙ ССР (НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ)

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется налоговая политика, проводимая советской властью в Ташкентской области Узбекистанской ССР в середине 1920-х годов, а также процессы формирования региональной налоговой системы. Кроме того, научно освещается роль административно-управленческих механизмов, введенных в Ташкентской области в рамках централизации

финансового и налогового управления, в совершенствовании налогового администрирования.

Ключевые слова: Финансы, налог, сбор, платеж, бюджет, сельскохозяйственный налог, доход, косвенные налоги, прямые налоги, финансово-экономическая комиссия, уезд.

Ergashev U. M.

Teacher at the department of «Archival studies and source studies»

National University of Uzbekistan

uergashev6677@gmail.com

THE ESTABLISHMENT OF THE TAXATION SYSTEM IN THE UZBEK SSR (ON THE EXAMPLE OF TASHKENT REGION)

ABSTRACT

This article analyzes the tax policy implemented by the Soviet authorities in the Uzbek SSR's Tashkent Region during the mid-1920s, as well as the processes involved in the formation of the regional taxation system. Additionally, it provides a scholarly examination of the administrative and managerial mechanisms introduced in the Tashkent Region within the framework of centralized financial and tax governance, highlighting their role in improving tax administration.

Keywords: Finance, Tax, Levy, Payment, Budget, Agricultural Tax, Income, Indirect Taxes, Direct Taxes, Financial-Economic Commission, Uyezd.